(2). Jumatova N. Hozirgi o‘zbek she’riyatida rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar. Fil.fan.nomz.diss., T., 2000, 126-bet.
(3). Usmon Azim. Saylanma. T., “Sharq”, 1995, 185-bet.
(4). Ro‘zimboyev S. Xorazm dostonlarida ramzlar. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1992, 5–6-sonlar, 96-bet.
(5). Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik, 10-jild, Toshkent, 1992, 548-bet.
(6). Usmon Azim. Fonus. T., “Sharq”, 2010, 160-bet.
(7). Usmon Azim. Dars. T., G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1986, 105-bet.
(8). Sarimsoqov B. Muhabbatga fido she’riyat. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1990, 2-son, 12-bet.
(7). Fayzullayeva O. General Typological Characteristics of Lyric Cycyles. Science and innovation, 2022, 1(B5), p. 231–236.
(8). Толстой Л.Н. О литературе. М., 1995, с. 764.

Saydazimova Umida Turaxanovna (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Koreyashunoslik oliy maktabi professori, DSc; e-mail: umidsaid75@gmail.com),
Murodova Durdona Baxodir qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Koreyashunoslik oliy maktabi katta o‘qituvchisi, PhD; e-mail:durum369@gmail.com),
Ibrohimova Ozoda Mirzadavlat qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishi 3-kurs talabasi; e-mail: Ozodaxonibrohimova00@gmail.com)

KOREYS VA O‘ZBEK IJODKORLARI NASRIDA OILAVIY ZO‘RAVONLIK MASALASINING BADIIY TALQINI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada koreys va o‘zbek ijodkorlari qalamiga mansub asarlarda oilaviy zo‘ravonlikning turli ko‘rinishlari tahlilga tortilgan. Oilaviy zo‘ravonlik – oilaviy munosabatlarning buzilishiga sabab bo‘ladi. Koreys jamiyatida konfutsiychilik me’yorlariga asoslangan oilada tartibning buzilishiga sabab bo‘lgan ijtimoiy muhit ayollarning zo‘ravonlikka uchrashiga sabab bo‘ldi. Feodalizm hamda sho‘rolar davrida oiladagi zo‘ravonlikni ayrim ayollar sodiqlik va vafodorlik, deb qabul qildilar. Zo‘ravonlikka qarshi bosh ko‘targan ayol-qizlar taqdiri ayanchli yakun topdi.*

Kalit so‘zlar: *oilaviy zo‘ravonlik, kaltaklash, ruhiy bosim o‘tkazish, zaif qatlam, ijtimoiy muhit, ayol, erkak, erk, qadr-qimmat.*

Сайдазимова Умида Тураxановна (Ташкентский государственный университет востоковедения, Высшая школа Корееведения, DSc, профессор; e-mail: umidsaid75@gmail.com),
Муродова Дурдона Баходировна (Ташкентский государственный университет востоковедения, Высшая школа Корееведения старший преподаватель, PhD; e-mail:durum369@gmail.com),
Ибрагимова Озода Мирзадавлатовна (Ташкентский государственный университет востоковедения, Филология и обучение языкам, студентка 3-курс; e-mail: Ozodaxonibrohimova00@gmail.com)

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОЗЫ О ДОМАШНЕМ НАСИЛИИ КОРЕЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ АВТОРОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются различные формы семейного насилия в произведениях корейских и узбекских авторов. Семейное насилие приводит к разрушению семейных отношений. В корейском обществе, основанном на нормах конфуцианства, социальная среда, приведшая к нарушению порядка в семье, стала причиной того, что женщины подвергались насилию. В эпоху феодализма и в советский период некоторые женщины воспринимали насилие в семье как верность и преданность. Судьбы женщин, восставших против насилия, зачастую завершались трагически.*

Ключевые слова: *семейное насилие, избиение, психическое давление, уязвимые слои населения, социальная среда, женщина, мужчина, воля, достоинство.*

Saydazimova Umida (Tashkent State University of Oriental Studies Higher school of korean studies, DSc, professor; e-mail: umidsaid75@gmail.com),
Murodova Durdona (Tashkent State University of Oriental Studies Higher school of Korean studies, PhD, senior teacher; e-mail:durum369@gmail.com),
Ibragimova Ozoda (Tashkent State University of Oriental Studies Institute of languages and literature 3rd course; e-mail: Ozodaxonibrohimova00@gmail.com)

ARTISTIC INTERPRETATION OF PROSE ON DOMESTIC VIOLENCE BY KOREAN AND UZBEK AUTHORS

Annotation. *This article analyzes various forms of domestic violence in the works of Korean and Uzbek authors. Domestic violence leads to the destruction of family relationships. In Korean society, based on Confucian norms, the social environment that led to the breakdown of family order became the cause of women experiencing violence. During the feudal era and the Soviet period, some women perceived domestic violence as loyalty and devotion. The fates of women who rebelled against violence often ended tragically.*

Keywords: *domestic violence, beating, psychological pressure, vulnerable populations, social environment, woman, man, will, dignity.*

Kirish (Introduction). Bugungi kunda koreys va o‘zbek adabiyotida ayol obrazi keng planda talqin etilgan asarlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ayol obrazi o‘zida turmushning turli jihatlarini, sinovlarini, mashaqqatlarini ko‘rsatishda yanada aniqroq namoyon bo‘ladi. Chunki adabiyot, avvalo, ayolga atalgandir. Adabiyotshunos olim Z.Isomiddinov asosli ta’kidlaganlaridek: “Insonshunoslik bo‘lmish adabiyot, birinchi navbatda, ayolshunoslik, ya’ni ayolni o‘rganish, inkishof etish ilmidir. Kuzatsak, eng qadimga asarlar ham ayolga bag‘ishlangan, ular konfliktini ayol va unga aloqador narsalar tashkil etadi. Hatto, aytish mumkinki, adabiyot taraqqiyoti ayol mavzuining badiiy tadqiqi, uning teranlasha borishi bilan chambarchas bog‘liq” [4;47-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XX asrda ijod qilgan qator koreys va o‘zbek adiblari ijodida tengsizlik, qashshoqlik, yo‘qsillik, ayolning nochor hayoti bilan birga zo‘ravonlik masalasi ham uchraydi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, bugungi kun nasrida yetakchi g‘oyalardan biriga aylangan zo‘ravonlik masalasi mumtoz davr koreys qissalarida ham uchraydi. Feodal qoloqlik davrida yaratilgan “Sadoqatda tengi yo‘q Chxunxyan haqida qissa”da ayol – kisenlar taqdiridagi ko‘rguliklar, xo‘rliklar va haq-huquqsizlik inson qadrining toptalishiga yorqin misol bo‘ladi. Ma’lumki, qator tadqiqotchilar mazkur qissani u yoki bu masalada ilmiy tahlilga tortganlar. Tadqiqotchilar e’tibor qaratgan masala bu kisenlikka barham berish yoki yosh kisen qizning sadoqatli muhabbati va nafratidir.

“Chxunxyan haqida qissa”da ko‘tarilgan muammo nafaqat ona va qiz kisenlar muammosi, balki davr fojeasidir. Qadimgi Koreyada amaldorlarning ayollarga munosabati sinfiy qarashlar bilan shartlangan. Ular oliy tabaqaga qarashli ayollarni hurmat qilishgan, quyi tabaqaga qarashli ayollarni esa tahqirlashgan. Mana shu ma’noda, kisenlar alohida ijtimoiy mavqega ega bo‘lib, ularning vazifasi – erkaklarning ko‘nglini xush etishdan iborat bo‘lgan. Shuning uchun ham ular har qanday erkak uzishi mumkin bo‘lgan gulga qiyoslangan. Umrining eng go‘zal, shirin onlarini erkaklarning xizmatida o‘tkazgan kisenlar 50 yoshdan so‘ng mayxonalarda ishni davom ettirishgan.

“Sadoqatda tengi yo‘q Chxunxyan haqida qissa”da bahor fasli, yosh yigit va qizning qalbiga kirib kelgan muhabbat bilan birga kisenlarning ayanchli ahvoli yoritilgan. Mazkur davrda yaratilgan boshqa qissalarda qo‘yilgan masala yechimida tashqi kuchlar ishtirok etgan bo‘lsa, bu qissa shafqatsiz realistik uslubda yozilgan: “Shu orada Namvonga yangi hokim tayinlanibdi. Poytaxtga mahalliy mahkamadan mulozimlar uni Namvonga kuzatib borish uchun tashrif buyurishibdi. Hokim zaruriy ko‘rsatmalarni beribdi, so‘ng gap orasida qiziqqan bo‘libdi:

– Sizlarning uezdingizda...Yan ismli bittasi bor...

– Ahmoq, – debdi hokim jahl bilan. – Men Yan ismli kisen haqida gapiryapman!

– Ha, Chxunxyan ismli qo‘shiqchi qiz bor, – debdi mulozim, – lekin kisenlar kitobida uning ismi yo‘q.

Yangi hokim taajjublanibdi:

– Kisenlar kitobida yo‘q! Bu qanaqa yangilik bo‘ldi?

– Gap shundaki, u eski hokimning o‘g‘li bilan nikoh ittifoqi tuzgan va endi uyning ayollar qismida unga sodiqlikni saqlamoqda, – deb javob beribdi mulozim” [5;389–390-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Feodal qoloqlik davrida har bir hududga yangi hokim tayinlangach, hududdagi barcha davlat mulki bilan birga kisenlar ro‘yxatining taqdim etilishi masalasi arab tadqiqotchisi A.A.Xalafning: “Sharq san’atida ayol obrazi markaziy o‘rinni egallaydi. Ammo bu obraz ko‘p ma’nolarga ega bo‘lib, turlicha talqin qilinadi. Bir tomondan, u ayolni ma’naviy yuksak darajada bo‘lsa-da “narsa” sifatida, ammo dunyoviy sevgining timsoli sifatida tasvirlaydi. Ikkinchi tomondan, ayolga nisbatan dunyoviy sevgi Allohga muhabbat ramzini ifodalaydi” [7;118-b.], degan fikrlarida yanada oydinlashadi.

Hokimga taqdim etilgan ro‘yxatda go‘zal va nazokatli qiz Chxunxyanning ismi yo‘qligi uning g‘azabiga sabab bo‘ldi: “Hokim paydo bo‘lgani zahoti, uning ikki tomonida otliq qo‘shin saf tortibdi, harbiylar ortida esa bir nechta qator bo‘lib saf tortib kisenlar turishar ekan. Oldinda – qizil yubka va yashil kamzul kiygan yosh kisenlar, ularning orqasida – yoshi kattaroq kisenlar, keyingi qatorlarda esa qari kisenlar turisharkan. Mulozimlar biri olib, biri qo‘yib yangi boshliqning ko‘nglini olishga harakat qilar ekan. Ammo hokimning xayoli faqat Chxunxyanda ekan. Namvonga kelganidan so‘ng bu xayol uni bir lahza ham tark etmabdi” [5;391-b.].

Ismi jismiga monand pokiza bo‘lish istagidagi qiz xarakterini ochishda muallif ichki kolloziya tasviriga ko‘proq e’tibor qaratadi. Ayollik nazokati, dunyoqarashi o‘zgacha sharq ayoli, oila muhabbat asosiga

qurilishiga ishongan, mehr qo'ygan insoni safardan qaytguncha o'ziga oro berish, boshqa erkaklar e'tiboriga tushmaslik uchun uydan tashqariga chiqmay qo'ygan qiz kutgan mudhish voqea ro'y berdi:

" – Nima uchun ro'yxatda Chxunxyan ismi yo'q? – deb so'rabdi.

– Chxunxyan erga tekkan va endi u sadoqatni saqlamoqda, – deb javob beribdi amaldor.

– Buni qarang-a, qo'shiqchi qiz sadoqat saqlayotgan emish, – deb kinoya qilibdi hokim. – Qani, tez uni huzurimga keltiringlar!" [5;391-b.].

"...qo'shiqchi qiz" – bu kisenlarning asosiy vazifalaridan bo'lib, ular qo'shiq aytish, chiroyli raqsga tushish, hatto rasm chizish san'atidan xabardor bo'lishi talab etilgan. Buyruqni bajarmagan mirshablar jazoga tortildi – zindonga tashlandi. Boshqa mirshablar Chxunxyanni olib kelish uchun yuborildi.

" – Seni deb boshqalar jabr ko'rishi mumkin. Mahkamaga borishga majbursan, tezroq qimirla!

Chxunxyan yig'lab yuboribdi:

– Odam o'z gunohlarini bilmaydi. Mening aybim nimada? Qaysi gunohlarim uchun meni ushlayapsizlar?" [5; 392-b.].

Chxunxyan barcha kisenlar oldida eng yoshi bo'lib, go'zalligi, bahoriy ifori bilan boshqalardan ajralib turardi. Uning chiroyini, hatto juldur kiyimlar ham berkita olmadi. O'ziga hayvoni hirs bilan qarab turgan hokimga qarshi dadil gapirgan qiz jazoga tortildi. Avval, rosa *kaltaklandi,* keyin esa *zindonga tashlandi*. Shu o'rinda, A.P.Karagodaning "*...ayol o'zini nikoh orqali namoyon qiladi, ...jamiyat tomonidan o'rnatilgan, oilani buzish kabi tartiblardan chiqqan ayollarga o'lim jazosi belgilanishini ko'rsatib o'tadilar*" [6; 19–20-b.], degan fikrlari o'z tasdig'ini topadi.

O'zbek hikoya janrining mohir ustasi Abdulla Qahhor hikoyalarida ham ayolga ko'rsatilgan zulm "Dahshat" hikoyasida bo'rtib namoyon bo'ladi. Abdulla Qahhor ijodida o'zbek ayolining taqdiriga doir asarlarini tadqiq doirasiga tortgan adabiyotshunos olim, tarjimon Ozod Sharafiddinov yozuvchining "Dahshat" hikoyasiga alohida e'tibor qaratadi, dodhoning zo'ravonligi, zulmiga qarshi turishga o'zida kuch topa olgan Unsinni erksevar, dovyurak ayol deb ataydi: "Hikoyada Unsinni halok qilgan narsa qo'rquv, vahima, go'riston dahshati emas, Dodho ekanligiga, dodholar dunyosi ekaniga ishora bor. Unsinning jasorati beiz ketmaydi, u Dodho xonadonining tomiriga bolta uradi, tilsiz kundoshlarining qalbida so'nib qolgan odamiylik hislarini o't oldiradi. Nodirmohbegimning bu dargohdan ketishi dodholar dunyosining chirikligiga ishora" [8;65-b.].

Hikoya sujeti juda ham ham ajoyib qurilgan: voqealar rivoji bir-biriga ipsiz bog'lanib ketadi, bir voqea ikkinchi voqea uchun asos bo'ladi. Jumladan, tashqarida shamolning uvillashi Dodhoning qo'rquvi hamda bir vaqtlar eshitgan yigit voqeasidan so'ng bo'lib o'tgan suhbat Unsinning o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, go'ristonga borishi voqeasiga sabab bo'ladi.

" – Menga davlat kerak emas, davlat kerak bo'lsa, borar edim, – dedi.

Bu gap dodhoga tegib ketdi.

– Nima kerak?

Unsin indamadi. Dodhoning savoli javobsiz qolishi mumkin emas edi. Shuning uchun *bittasi gunoh qilsa, hammasi baravar kaltak yeydigan* kundoshlar Unsinni turtkilashdi.

– Javob bersang-chi!

– Tildan qoldingmi?

Yonida o'tirgan kundoshi biqiniga ikki-uch marta turtganidan so'ng Unsin boshini ko'tarib, balo-qazoday tikilib turgan dodhoga bir ko'z tashladi-yu, yana boshini egib, lekin dadil javob berdi:

– Javob bersangiz...Ganjiravonga ketsam...Bitta go'rga bitta pichoq emas, o'nta go'rga o'nta pichoq sanchib kelaman... – dedi" [1].

Adolatsizlikka asoslangan ijtimoiy tuzum qurboniga aylangan ayollarning erki uchun kurash aks etgan hikoya markazida bosh qahramon Unsin turadi. Olimxon dodhoning sakkinchi ayoli, eng kichigi, suyuklisi o'zidan avvalgi "*bittasi gunoh qilsa, hammasi baravar kaltak yeydigan*" kundoshlari ayta olmagan so'zni aytishda o'zida jur'at topdi. Tug'ilib o'sgan xonadonidan farqli ravishda dodhoning uyida usti but, qorni to'q Unsin uchun, eng muhimi, erkdir. Shu sababli u go'riston dahshatidan ham qo'rqmadi, Olimxon dodhodek zulmkor changalidan xalos bo'lish uchun o'zini qurbon qildi.

XX asr boshida yapon istibdodi davrida yashab, ijod qilgan Ke Yonmuk qalamiga mansub "Adada" hikoyasida onadan soqov tug'ilgan, eshitadi-yu, gapira olmaydigan qizning avval onasi, keyin eri tomonidan zo'ravonlikka uchrashi tasvirlanadi. Qiz juda ham serg'ayrat bo'lib, har ishda onasiga yordam ko'rsatish uchun harakat qiladi, og'ir ishlarni ham bajaradi, ammo onasi, baribir, uni yoqtirmaydi. Puxta o'ylamay, ishtiyoq bilan ishlashga harakat qiluvchi Adada ko'p holda ishning pachavasini chiqarardi. Natijada u onasi tomonidan ayovsiz kaltaklanadi: "Adada qaltirib, onasidan shavqat so'radi. Biroq Pak xola qizining

sochlaridan ushlab, odatdagidek uni sudray boshladi. U xuddi shoʻrlik Adadaning jonini sugʻurib olmoqchi boʻlgandek, bor kuchi bilan uning sochidan tortardi. Qiz gandiraklab, oʻzini u yoqdan bu yoqqa tashlar, oyoq ostida qolgan kuchuk bolasidek ingrar, oʻzini himoya qilishga urinmasdi. U oʻz qismatini yengillashtirish yoʻlidagi har qanday harakati oʻziga qimmatga tushishini, bundan onasining gʻazabi battar qoʻzishini yaxshi bilardi" [6;163-b.].

Oila fojiasining *birinchi omili*, onaning soqov qiziga nisbatan gʻazabi, tun-u kun uni savashidan butun mahalla xabardor edi. *Ikkinchi omil*, ota-onasi u yigirma yoshga kirguncha bir amallab chidab, nihoyat, qizlarining sepiga bir *somchxigi* yaxshi lalmi yerni berib, uni erga berishga muvaffaq boʻldilar. Adadani erga berib, undan xuddi keraksiz bir buyumdek xalos boʻldilar.

Adada tabiatida xoʻrliklarga, oʻzini ayovsiz savalashlariga qarshi isyon mavjud emas. Oʻzini shafqatsiz savagan onasiga nisbatan kek ham saqlamaydi, aksincha, bekorchilikdan uyalgandek, yana ishga aralashib ketaveradi. Bu koʻrguliklar oradan besh yil vaqt oʻtib, erining uyida ham boshlandi: "Endi u xotinining arzimagan xatosini ham nazardan qochirmas, sal narsaga ham unga jahl bilan qarar, uni doʻpposlashga tushardi" [6;166-b.] yoki "U xotinini ayamay doʻpposlardi. Biroq Adada bularning hammasiga chidar, uy ishlarini odatdagidek tirishqoqlik bilan bajarardi" [6;166-b.].

Turmush qurganidan besh yil oʻtib, Adada ota-onasining uyiga qaytib keldi. Yana onasining xoʻrliklari, ayovsiz kaltaklariga chidab yashashga majbur boʻldi. Ammo onasi uydan haydab yuborganida, qiz ikki yoʻl oʻrtasida qoldi: uyda onasi, erining uyida eri kaltak bilan savalashadi. Adada boshpana topishi mumkin boʻlgan bir uy bor, u soʻqqabosh Suronning kulbasi. Har qanday holatda ham Adada koʻchada koʻz yoshi qilmas, atrofidagi odamlarning yigʻlayotganini koʻrishini istamas edi. Shu sababli u Suronning kulbasiga qadam qoʻyishi bilan koʻzlaridan shoshqator yoshlarini toʻxta olmadi, oʻzining tilida boʻlib oʻtgan voqealarni tushuntirdi.

Suronning uyida panoh topgan Adadani oldinda yana boshqa sinov kutib turardi. Tekin ayolga erishgan Suron Adadani olib, boshqa hududga koʻchib oʻtdi. Uylanish uchun jamlab yurgan pullarini yer olib ishlatishini aytganida, Adadani qoʻrquv bosdi. Onasining uyida toʻkilgan ovqat, singan idishlar uchun, erining uyida oilaning daromadi oshganidan kaltaklangan Adada uchun pul – cheksiz kaltaklar, doʻpposlashlar, kulfat edi. Pullarni dengizga otib yuborgan Adada Suron tomonidan doʻpposlanib, pullar ortidan dengizga gʻarq qilindi. Bir umr roʻshnolik koʻrmagan Adadaning jasadini oqim oʻz domiga tortdi, suv yuzida qalqib yurgan pullar esa xuddi qizning azoblarini oʻzi bilan olib yurgandek, zoʻravonlikning cheki yoʻqdek edi.

Ke Yonmuk bilan zamondosh yozuvchi Na Doxyan bu masalaga boshqa rakursda yondashadi. Muallif qalamiga mansub hikoya, aslida, tush motivi asosiga qurilgan boʻlib, oʻlimi oldidan va oʻlimidan keyin xoʻjayinning oʻgʻli tushiga kirgan xizmatkorning qizi Imsilning ota-onasi tomonidan zoʻravonlikka uchrashi hikoya qilinadi.

"Sogʻayib maktabga qatnay boshlaganimdan keyin oradan bir oycha vaqt oʻtdi. Men boshqaruvchining uyiga kirdim va ayolining:

– Yaramas qiz, hoziroq menga javob ber! – deb baqirayotganini eshitdim.

Men boshqaruvchining ayoli baqirayotgani va Imsilni urayotganini koʻrdim. Qiz xuddi joni uzilguncha ham miq etmaslikka ahd qilgandek lablarini qisib olgan, yuzidan duvillab yosh toʻkilardi.

– Gapir! Endi ham aytmaysanmi? – deb baqirdi onasi va qoʻlidagi tayoqni Imsilning yelkasiga tushirdi.

Imsil boshini xam qilib oʻtirar va sukut saqlardi.

Onasi ikki marotaba " ha, yashamagur!" deb baqirdi va yana tayoqni boshi uzra koʻtardi, biroq menga koʻzi tushib, darhol ortga chekindi" [6;138-b.].

Qoʻshni qishloqda yashaydigan, ayoli olamdan oʻtgan, oʻziga toʻq keksa dehqon besh tanob yer va ikkita sigir evaziga Imsilga sovchi qoʻygan edi. Ammo yosh qalbi muhabbat bilan toʻla qiz qari cholga turmushga chiqishga rad javobini bergani uchun onasi tomonidan ayovsiz kaltaklanadi. Xoʻjayinning oʻgʻli Imsilning bu xatti-harakatlarini qoraladi, onasi tarafini oldi. Boy insonga turmushga chiqsa, toʻkin-sochin hayot kechiradi, deb oʻyladi. Bu yodimizga jadid adabiyotining yorqin namoyandasi, shoir, yozuvchi Choʻlponning "Qor qoʻynida lola" hikoyasidagi Samandar akaning oʻn yetti yoshli qizi Sharofatxondan soʻrab ham oʻtirmasdan qari cholga uchinchi ayollikka bergani voqeasini esga soladi.

Shundan soʻng Imsil kasal boʻlib, yotib qoldi. Keyingi safar boshqaruvchining uyiga kirgan xoʻjayinning qulogʻiga onaning faryodi eshitildi. Sukunat bagʻrini onaning faryodi tutib ketgan, ota esa onaning oldida koʻzi toʻla yosh oʻtirardi. Oʻz qizini mol-dunyoga almashtirmoqchi boʻlgan ota-ona, aslida, qizning qotiliga aylangan edilar.

Shoyim Bo‘taev zamonaviy o‘zbek nasrida kampirlar obrazini yaratish mahorati bilan ajralib turadi. Kampirlar obrazi bizga har doim katta hayot tajribasidan o‘tgan momolarni yodga soladi. Ammo Shoyim Bo‘tayev o‘zining “Sho‘rodan qolgan odamlar” qissasida kampir obraziga boshqa rakursdan turib yondashadi. Qissa bosh qahramonlari sifatida kamoqxona nazoratchisi, uning kampir va qamoqxonaga mahkum qilingan o‘g‘il farzand gavdalanadi.

Johil er tomonidan bir umr boshi kaltakdan chiqmagan kampirning bu hayotda ro‘shnolik ko‘rmagani qo‘shni kampirning uning eriga aytgan gaplarida anglashiladi:

“ – Peshonang sho‘r ekan sani, peshonaginang sho‘r ekan! O‘g‘lingni turmaga qamatib, xotiningni o‘ldirib, bir o‘zginang so‘ppayib yuradigan bo‘lding-a! O‘l-a, bu kuningdan, o‘l qo‘y! Ikki juvonmargni tug‘ib katta qilgan onang sanlardan nima rohat ko‘rdiki, boshqalar ko‘rsin! Birovning parishtaday qizini urib-urib sochini oqartirding, qaritding. Mana, endi qutulasan, mana endi durust xotin olasan, – kampir birdaniga aytib turgan gapidan tondi. – Durust xotin olasan-a, durust xotin olasan! Sochginasini tarab turgan ekanmi? Sanginaga qarab qolgan ekanmi? Baloni olasan! Sanga mocha eshak ham hayf, hayf! Er bo‘lguncha qora yer bo‘l, qora yer bo‘l! – kampir eshik oldida qoqqan qoziqdek serrayib turgan nazoratchiga qaramay, ikki mushti bilan tizzalarini eza boshladi” [2;130–131-b.].

Tahlil va natijalar (Analysis and Methodology). O‘lim to‘shagida yotgan kampirning butun umri, hayoti qo‘shni kampirning qarg‘ishlarida ayon bo‘ladi. Oiladagi har ikki erkak – eri va o‘g‘li tomonidan qadrsizlangan, ammo, turmushning bu achchiq zarbalariga dosh berib yashagan kampirning so‘nggi ilinji qamoqxonadagi o‘g‘li diydorini ko‘rish edi. Zolim otaning dastidan uning so‘nggi o‘tinchi ham vojib bo‘lmadi.

Mumtoz davr koreys qissasi qahramoni Chxunxyan yosh bo‘lishiga qaramay, feodal qoloqlik illatlari – ayollar erkining bo‘g‘ilishi, kisenlarning narsa sifatida ro‘yxatda turishiga qarshi dadil fikr bildira oldi. Yangi hokim tomonidan ayovsiz kaltaklangan, buyruqni bajarmagani uchun zindonband qilingan qiz, aslida, mazkur davr jamiyat fojiasi ildizlariga ilk bor bolta urishga muvaffaq bo‘ldi. Xuddi shu holat o‘zbek yozuvchisi Abdulla Qahhor yaratgan Unsin obrazida yanada bo‘rtib namoyon bo‘ladi. Yetti kundosh ayta olmagan haqiqatni aytishga jur’at qilgan Unsin nafaqat oila, balki jamiyat fojiasi sabablarini ko‘rsata oldi.

Nogiron qiz Adada nafaqat erkaklar, balki o‘zini dunyoga keltirgan ona tomonidan xo‘rlandi, azoblarga duchor bo‘ldi. Bir umr haq-huquqini anglab yetmagan, ezilgan qiz inson nafsining qurboni bo‘ldi. Na Doxyan yaratgan Imsil obrazi qisman Chxunxyan qismatiga o‘xshash. Yosh qiz o‘zi tengi yigit bilan turmush qurishni orzu qiladi, sevish-sevilishni istaydi. Ammo oilaning moddiy ta’minotini birinchi planga qo‘ygan ota-ona uni qari beva cholga sotishga ahd qilishdi. Bunday taqdirga rozi bo‘lmagan qiz onasi tomonidan ayovsiz kaltaklandi, oxir-oqibat kaltaklar zarbidan o‘lim topdi. Chxunxyan, Adada, Imsil obrazlari aniq badiiy maqsadda yaratilgan obrazlardir.

O‘zbek nasrida sho‘ro davri shamoli oilani ham xuddi qamoqxonada o‘rnatilgan tartib asosida boshqargan Mels obrazida aks etadi. Bosh qahramon kamoqxonada hibsga olinganlar qilgan gunoh uchun xuddi ayoli aybdordek bir umr kampirini ayovsiz kaltakladi. Ammo kampir lom-lim demadi, eriga e’tiroz bildirmadi. Faqat farzand dog‘i uning o‘limini tezlashtirdi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ko‘rinadiki, ijod ahli ayollarning turli qiyofalarini yaratish bilan birga, ularga yetkazilayotgan jabr-zulm ildizlariga turli xil usulda yondashadilar. Tahlilga tortilgan barcha asarlar zamirida goh oshkora, goh pinhona ayolning erkin fikri, hayotga bo‘lgan munosabati anglashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Абдулла Қаххор. Асарлар. Беш жилдлик. Биринчи жилд. Сароб. Роман. Ҳикоялар. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.

(2). Бўтаев Ш. Шўродан қолган одамлар. Тошкент, “Ижод-пресс”, 2019.

(3). Zamonaviy koreys nasri antologiyasi. Tuzuvchilar: U.Saydazimova, Choi So Yong va boshq., Toshkent, “Istiqlol”, 2014.

(4). Исомиддинов З. Икки аёл. “Тафаккур”, 2007, Тошкент, 4-сон.

(5). Klassik koreys nasri antologiyasi. Tuzuvchilar: U.Saydazimova, Choy So Yong, L. Xvan va boshq., Toshkent, “Istiqlol”, 2013.

(6). Карагода А.П. Социокультурная обусловленность женских образов в искусстве нового времени. Автореф. дисс… канд. наук искусствоведения, Краснодар, 2019.

(7). Халаф А.А. Образ женщины в арабском искусстве. Вестник ВГУ, серия филология и журналистика, 2012, № 1.

(8). Шарафиддинов А. Адабий этюдлар. Тошкент, “Бадиий адабиёт”, 1968.